

**Xayrullayeva Dilnoza Narzullayevna****Ibragimova Manzura Maxmasiddiq qizi***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

**Annotatsiya:** *Yunon fors urushlari (miloddan avvalgi 492–449 yillar) Gretsya tarixida muhim davrni tashkil etadi, chunki ularning natijalari nafaqat Yunon madaniyatining omon qolishiga, balki Gretsya ichki siyosiy va ijtimoiy tizimlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tezisda urushlarning Gretsya siyosatiga qanday ta'sir qilgani, ayniqsa, shahar-davlatlar o'rtasidagi ittifoqlar, siyosiy tizimlarning rivojlanishi va Gretsya ichki muvozanatidagi o'zgarishlar orqali tahlil qilinadi. Gretsya shahar-davlatlari (ayniqsa, Atina va Sparta) o'rtasida qurilgan ittifoqlar va ularning harbiy hamkorliklari, shuningdek, urushning davomida yuzaga kelgan siyosiy raqobat va shahar-davlatlar o'rtasidagi nizolar muhokama qilinadi. Urushdan so'ng, Gretsyaning siyosiy strukturalari va harbiy tashkilotlarining rivojlanishi hamda Kalliy tinchligi va uning Gretsya mustaqilligi uchun ta'siri keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Gretsya, Persiya imperiyasi, Afina, Sparta, Delos, Perikl davri, peleponnes urushlari.*

**Abstract:** *The Greco-Persian Wars (492–449 BCE) represent a significant period in Greek history, as their outcomes greatly influenced not only the survival of Greek culture but also the development of Greece's internal political and social systems. This thesis analyzes how the wars affected Greek politics, particularly through the alliances between city-states, the evolution of political systems, and shifts in internal balance within Greece. The formation of alliances and military cooperation between Greek city-states (especially Athens and Sparta), as well as the political rivalry and conflicts among them during the war, are discussed. The post-war development of Greece's political structures and military organizations, along with the impact of the Peace of Callias on Greek independence, are also highlighted.*

**Keywords:** *Greece, Persian Empire, Athens, Sparta, Delos, Periclean era, Peloponnesian Wars.*

**Абстрактный:** Греко-персидские войны (492–449 гг. до н. э.) являются важным этапом в истории Греции, поскольку их исход оказал значительное влияние не только на сохранение греческой культуры, но и на формирование внутренних политических и социальных систем. В данной работе анализируется влияние войн на политику Греции, в особенности через призму союзов между городами-государствами, развитие политических систем и изменения внутреннего баланса в стране. Обсуждаются союзы и военное сотрудничество между греческими полисами (особенно Афинами и Спартои), а также политическое соперничество и конфликты между ними в ходе войны. Также рассматриваются послевоенное развитие политических структур и военных организаций Греции и влияние Каллиевского мира на независимость страны.

**Ключевые слова:** Греция, Персидская империя, Афины, Спарта, Делос, эпоха Перикла, Пелопоннесская война.

## KIRISH

Yunon fors urushlari, ya'ni Persiya imperiyasi bilan Yunon shahar-davlatlari o'rtasidagi sermahsul va uzoq davom etgan urushlar, miloddan avvalgi V-asrda Gretsya siyosati va jamiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu urushlar nafaqat Gretsya va Persyaning harbiy kurashlari bo'lib, balki greklarning siyosiy tizimiga, ittifoqlariga, madaniyatiga va kelajakdagi tarixiy yo'nalishlariga ham ta'sir ko'rsatgan. Urushlarning boshlanishi va davomiyligi Gretsya shahar-davlatlarining o'zaro raqobati, qo'shinlarining tashkiloti, hamda Persyaning siyosiy va harbiy kuchi bilan bog'liq edi.

Yunon fors urushlari Gretsya siyosatida yangi ittifoqlarni shakllantirishi, hamda ba'zi shahar-davlatlarning suverenitetini himoya qilish va iqtisodiy rivojlanishiga imkon yaratdi. Yunon fors urushlari Gretsya siyosatiga nafaqat harbiy, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham katta ta'sir ko'rsatdi. Urushlarning boshlanishi, Gretsya shahar-davlatlarining Persiya imperiyasiga qarshi birlashishiga sabab bo'ldi. Bu urushlar nafaqat Gretsya ichidagi siyosiy hayotga, balki yunonlarning o'zaro ittifoqlari va raqobatiga ham ta'sir etdi. Yunon fors urushlarining asosiy ta'sirlaridan biri shundaki, ular Gretsya shahar-davlatlari orasida yangi ittifoqlarni shakllantirdi.

Masalan, Delos ittifoqi yunon shahar-davlatlari o'rtasida koalitsiya tuzishga olib keldi. Bu ittifoq Gretsya shahar-davlatlari uchun xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi, lekin u ayni paytda bir nechta shaharlarning markazlashgan hokimiyatga bo'lgan ehtiyojini keltirib chiqardi, bu esa keyinchalik siyosiy taranglikka olib keldi.

Asosiy qism.Yunon-fors urushlaridan so'ng Afina tez tiklandi. Pirey porti qayta qurilib, o'sha davrdagi O'rtayer dengizidagi eng yirik port hisoblangan Karfagen portiga tenglashdi. Dengiz ittifoqiga yetakchilik qilgan Afina yunon dunyosi dengiz savdosida ham birinchi o'rinni egalladi. Afina eksporti Shimoliy Qora dengiz, Sitsiliya, Apuliya, Etruriyani qamrab oldi. Egina, Korinf Kerkira va boshqa shaharlar savdoda Afinani birinchiligini e'tirof etishga majbur boidilar. Afina ijtimoiy qatlamlarida ham tegishli o'zgarishlar yuz berdi. Jamiyatda yetakchi o'rinni savdo - hunarmandlar tabaqalarini egalladilar. Davlatni ichki va tashqi siyosatini ana shu tabaqalar belgilar edi. Attika dehqonlari poytaxtni g'alla bilan ta'minlay olmas edilar, g'allani Qora dengiz bo'yidan yoki Italiyadan olib kelish arzonga tushar edi. Qishloq aholisi ish topishi uchun ko'plab shaharlarga kelib o'rnasha boshladilar.Er.av. V asr o'rtalaridan boshlab Afinada hunarmandchilik va dehqonchilikda foydalilanligan qullarni soni ko'payib ketdi. Afina olib borgan ko'plab urushlar natijasida Kichik Osiyo, Frakiya va Illiriyanidan qullar olib kelib sotiladigan Xios orolidagi qul bozori iqtisodiyotining ishchi kuchiga boigan ehtiyojini qondirdi. Qullarni soni keskin oshib ketdi. Malakasiz qul arzon boiib, hunarga o'rgatilgan qul qimmati 100—150 draxma baholanar edi. Perikl davri Afinasida qullarni aniq soni noma'lum. Taxminlarga ko'ra, ular 400 mingtaga

yetmagan. Boy shaharliklar xo'jaligidagi 10—20 qul mehnat qilgan. Hunarmandchilik korxonalari, konlar, poliz, uzumzor va zaytunzorlarda qullar mehnat qilganlar.

Spartaliklarning ahvoli og'irlashib qoldi. Ular urush harakatlarini shimolga Frakiyaga ko'chirdilar. Bu yerdagi bir qancha shaharlar Afina bilan ittifoqdan chiqdilar. Er. av. 422-yilda Amfiopol shahri yaqinida katta jang bo'lib, har ikki tomondan ko'plab qurboniiklar berildi. Bu jangdan so'ng Afina bilan Sparta o'rtaasida 50 yil muddatga tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga Afinaning elchisi Nikiy nomi bilan Nikiy shartnomasi deb ataldi. Ammo bu tinchlik uzoqqa bormadi. Afinada er. av. 420-271 yilda Sparta bilan urushni davom ettirish tarafdarlari Periklning jiyani Alkiviad boshchiligidagi hokimiyatga keldilar va bir necha peloponnes polislari Spartaga qarshi fuqarolami chiqishini uyushtirdilar. Er. av. V asr so'ngida yunon polislari uzoq davom etgan tushkunlik pallasiga kirdi. Fuqarolaming yopiq jamoasiga asoslangan yunon polisi endilikda yer mulkchilik munosabatlarida keskin o'zgarishlar boshlandi. Yerga ishlov berishdan keladigan daromaddan ko'ra sudxo'rlik daromadi o'sib ketdi. Yerni sotish keng tarqaldi, katta-katta yer maydonlari ayrim fuqarolaming qo'liga o'tib qoldi. Kambag'allashgan, yeridan ajralgan fuqarolar o'z fuqarolik -maihiyatlarni bajarmay qo'ydilar. Ularning ko'pchiligi o'z mablag'larini dengiz savdosiga qo'ya boshladilar. O'z polislardan boshqa hududlarda katta-katta yer maydonlariga egalik qila boshladilar hamda ma'lum bir polis fuqarosi bo'lish ahamiyatsiz bo'lib qoldi. Bu davrda yunon polislari davlat xo'jaligining mavjud emasligi davlat xazinasiga daromad tushmasligi bilan belgilandi. Davlat hokimiyati iqtisodiy-moliyaviy jiliyatdan hech qanday mablag'ga ega emas edi.

Xulosa. Yunon Fors urushlari qadimgi Gretsiyaning siyosiy va ijtimoiy tuzilmasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Gretsiyaning birlashishi va mustahkamlanishi: Forslarga qarshi kurashda, ko'plab yunon shahar-davlatlari, ayniqsa Afina va Sparta, vaqtinchalik birlashib, umumiyl dushmanqa qarshi kurashishdi. Bu urushlar Gretsiyaning siyosiy birligini kuchaytirishga yordam berdi, ayniqsa Potiya va Delos ittifoqi shakllanishi bilan.

Afina imperiyasining shakllanishi: Yunon Fors urushlaridan so'ng Afina shahar-davlati o'zining dominant mavqeini mustahkamladi va Delos ittifoqini boshqarish orqali yunon dunyosining siyosiy markaziga aylandi. Afina siyosiy hayotida demokratiya rivojlanib, aholining keng qatlamlari davlat ishtirok eta boshladidi.

Sparta va uning siyosiy ahvoli: Sparta, Forslarga qarshi janglarda asosiy rol o'ynagan bo'lsa-da, urushdan keyin o'zining og'ir ichki muammolariga duch keldi. Ularning an'anaviy qo'shin tizimi va hukmronligi siyosiy jihatdan zaiflashdi va Sparta yunon dunyosida birinchi o'rinda turishni davom ettira olmadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Rajabov.R Qadimgi dunyo tarixi. T. Fan va texnologiya,2009, 440 bet.

27 April / 2025 /16– NUMBER

2. Boynazarov F.A Qadimgi dunyo tarixi.T.:2004
3. Avdiyev.V.I.Qadimgi sharq tarixiga kirish, Toshkent-1964,844 bet.
- 4.Pikus N N.Krushkol Yu.S. Qadimgi dunyo tarixi. II tom. T.:-1975.